

MULOQOTNI MODELASHTIRISH ZARURIYATI

Miralimova Shahzoda Hasanboyevna

Andijon davlat chet tillari instituti

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22040336>

Annotatsiya. Muloqotning kommunikativ jihatı – odamlar o'rtasida axborot almashishdan iborat bo'lib, psixologik jihatdan munosabat o'rnatish qobiliyati, nutqiy ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, muloqot holatining asosiligi, izchilligi va adekvatligi, verbal va noverbal muloqot vositalaridan samarali foydalanish belgilari modellash tirish zaruriyati tavsiflangan.

Kalit so'zlar. Muloqot, kommunikativ jihat, axborot almashish, nutqiy ta'sir, adekvatlik, verbal va noverbal muloqot vositalari, modellash tirish.

Axborotning uzatilishi jarayoni verbal (nutq orqali) va noverbal (nutqsiz) shaklda amalga oshirilishi mumkin. Verbal kommunikatsiya til, so'zlar, gaplar orqali axborot almashinuvini o'z ichiga oladi. Noverbal muloqot esa imo-ishoralar, ko'z qarashlari, ovoz toni, tana holati kabi vositalar orqali amalga oshiriladi. Muvaffaqiyatli kommunikatsiya uchun axborotning aniq, tushunarli va maqsadga muvofiq bo'lishi muhim hisoblanadi.

Axborotni uzatuvchi shaxs (adresant) o'z fikr va g'oyalarini kodlab, signalga aylantiradi (masalan, so'zlar, imo-ishoralar). Qabul qiluvchi shaxs (adresat) esa bu signalni dekodlab, uni tushunishga harakat qiladi. Agar kodlash va dekodlash jarayonlarida xatoliklar yuzaga kelsa, muloqot samaradorligi pasayadi. Axborot almashinuviga xalaqit beruvchi omillar kommunikativ to'siqlar deb ataladi. Bu to'siqlar til bilmaslik, madaniy farqlar, eshitish qobiliyatining pastligi, diqqatning chalg'ishi, emotsional holat va boshqa sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin.

Jalil ichkari kirib, chiroqni yoqdi. Asadbek o'tirgan holicha ko'rishmoq uchun qo'l uzatdi.

– *Ie, isitmang bor-ku, – dedi Jalil uning qo'lini qo'yib yubormay. – Nima qilib o'tiribsan, bu zimistonda, tinchlikmi?*

– *Tinchlik... seni ko'rgim keldi, og'ayni...*

– *Ob-bo, namuncha inqillaysan? O'likning ovozi ham senikidan yaxshiroq chiqadi. Ko'tar gavgangni, dadil-dadil gapir. Asadbek ammamning buzog'iga o'xshab qolibdi, desa birov ishonmaydi.*

O'rtog'ining bu yo'nilmagan gaplari yoqib, jilmayganida yo'tal tutdi. (T.Malik)

Jalilning samimiy gaplari Asadbekka yoqishi nutqiy aktning o'rinli ekanligi, situativ vaziyatni "yumshatish"ga qaratilganligi, ya'ni so'zlovchi(Jalil)ning kommunikativ maqsadni to'g'ri yo'naltirganligini ko'rsatadi.

Muloqotning interaktiv jihatı – shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish. Bunda kishilarning birgalikdagi faoliyatida bir - birlariga amaliy jihatdan ta'sir etishlaridir. Hamkorlikda ishlash, bir - birlariga yordam berish, bir - birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarni namoyon qilish mumkin¹.

– *Ha. Lekin undagi iz Chorsudagi izlarga o'xshamaydi. O'rtoq kapitan, – leytenant Sultonov qoshlarini chimirdi. – Saidovni so'roq qilsak bo'lardi hozir.*

¹<https://znanio.ru/media/muloot-2754601> (murojaat sanasi 10.01.2026)

– U qochib ketmaydi, – dedi kapitan va gapim to'g'rimi, degandek Ro'ziyevga qaradi. Ro'ziyev boshini qimirlatdi.

– Hmm... – o'ylanib qoldi kapitan. – Ajriq xuddi fojia yuz bergan paytda bosilgan.

– Demak, ular mashinada kelgan bo'lishlari mumkin? – faraz qildi leytenant.

– Ha, – tasdiqladi kapitan. – Lekin bu ham tekshiruvga muhtoj. Xo'sh, hozir biznimalarga egamiz? Birinchidan, kim o'ldirganligi ma'lum...(O'.Umarbekov)

Situativ vaziyatga ko'ra kommunikantlar bir-birlarining fikrlariga tayanib, voqelik borasida bir to'xtamga kelishga harakat qilmoqdalar. Bunda ularning kognitiv imkoniyatlari yaqinligi o'zaro muloqot samaradorligini ta'minlaydi.

Muloqotning perseptiv jihatini – kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Muloqot jarayonida kamida ikki kishi ishtirok etadi. Kishining qiyofasi, xatti-harakati asosida suhbatdosh haqida tasavvur hosil qilinadi.

Anchadan so'ng kapitan uning oldida to'xtadi-da:

– Xo'p, bo'пти, sizga ruxsat, – dedi.

Olloyorov eshikka o'tildi. Lekin nimadir esiga keldi shekilli, to'xtadi.

– O'rtoq kapitan! Ishimdagilar nima deydi?

– Agar o'zingiz aytmasangiz?..

– Tushundim, o'rtoq kapitan. Rahmat. Olloyorov chiqib ketdi.

«Ha, bu odam bilan ehtiyot bo'lish kerak, – xayolidan o'tkazdi Aliyev. – Ilintiradigan narsa qo'limda yo'qligini sezyapti. Bir jihatdan chaqirganim yaxshi bo'ldi. Tinchligini yo'qotdi endi u. Biron nojo'ya harakat qilib qo'yishi mumkin. (O'.Umarbekov)

Olloyorovning gap-so'zlari va xatti-harakati kapitanning ma'lum bir xulosa chiqarishiga asos bo'lmoqda. Demak, muloqotning perseptiv jihatini psixolingvistik tahlil asosidagi yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, internet muloqotida bu jihat muhim sanaladi.

Otabek qip-qizil qizarib gunohkorlardek yerga qarag'an edi. Hasanaling yuziga padorona tarahhum tusi kirib, keksalarcha maxsus ohangdor bir tovush bilan bekning ustidagi og'ir yukni ola boshladi:

– Aybi yo'q, o'g'lim, – dedi, – muhabbat juda oz yigitlarga muyassar bo'ladig'an yurak javharidir. Shuning bilan birga ko'b vaqtlar kishiga zararlik ham bo'lib chiqadir. Shuning uchun kuch sarf qilib bo'lsa ham unitish, ko'b o'ylamaslik kerakdir.

Bu keyingi gap bilan Otabek ko'tarilib Hasanaliga qaradi va uzoq tin olib yana yerga boqdi. Go'yo buning ila «unitish mumkin emas» degan qat'iy so'zni aytgan edi. Orag'a so'zsizlik kirdi. Ikkisi ham fikrga tolga'an edi². (A.Qodiriy)

Otabekning Hasanaliga uzoq termulib turishi, uning nima demoqchi bo'lganligini ko'rsatmoqda.

Muloqotni modellashtirish turlicha talqin qilinishi mumkin holatlarni tushinishni optimallashtiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Кастельс М. Галактика Интернет: размышления об Интернете, бизнесе и обществе. — Екатеринбург: У-Фактория, 2004. – 328 с.
2. Шуйская Ю.В., Кузнецов Н.В. Лингвистические особенности дискурса интернет-

² <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qodiriy/abdulla-qodiriy-otkan-kunlar-roman/> (murojaat sanasi 10.01.2026)

чатова // Научное обозрение: гуманитарные исследования. – 2016. – № 8. – С.102.

3. Горошко Е.И. Лингвистика Интернета: формирование дисциплинарной парадигмы // Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе. – Орел: Картуш, 2007. Вып. 5. – С. 223-237.

4. Галичкина Е.И. Характеристика компьютерного дискурса // Вестник ОГУ, №10, 2004. – С. 55-59

5. Асмус Н.Г. Лингвистические особенности виртуального коммуникативного пространства: дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2005. Виноградова Т.Ю. Специфика общения в интернете // Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект [Электронный ресурс]. www.philology.ru/linguistics1/vinogradova (murojaat sanasi 20.03.2023) Бергельсон М.Б. Языковые аспекты виртуальной коммуникации // Вестник МГУ <http://www.ffl.msu.ru/staff/mbergelson> (murojaat sanasi 20.03.2023) Горошко Е.И. Современная интернет-коммуникация: структура и основные параметры // Интернет-коммуникация как новая речевая формация : колл. монография / науч. ред. Т. Н. Колокольцева, О. В. Лутовинова. М., 2012. – С. 9-52. Холод А.Л. Понятие Интернет - коммуникации // <https://topuch.com/a-l-holod-minsk> (murojaat sanasi 20.03.2023)

6. Ахренова Н.А. Теоретические основы Интернет-лингвистики // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. № 10 (28). – С. 22-26.